



SOCIAL EDUCATIONAL SIGNIFICANCE OF LEARNING THE TEACHING OF JADIDS IN NEW UZBEKISTAN

Kucharboyeva Durdona Otamurod qizi

Student at Navoi State University, majoring in "National Idea,
Fundamentals of Spirituality, and Legal Education."

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21898656>

ARTICLE INFO

Received: 04th August 2026

Accepted: 11th August 2026

Online: 12th August 2026

KEYWORDS

New Uzbekistan, Jadidism,
Mahmudkhodja Behbudiy,
Abdurauf Fitrat, drama,
National tragedy, new
education.

ABSTRACT

This article provides scientific coverage of the Jadid movement that emerged in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries and the scientific and philosophical views it pursued in science, education, and national state administration in New Uzbekistan.

СОЦИАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ДЖАДИДОВ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ

Кучарбаева Дурдона Отамурод кизи

Студентка Навоийского государственного университета, обучающаяся по
направлению «Национальная идея, основы духовности и правовое образование».

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21898656>

ARTICLE INFO

Received: 04th August 2026

Accepted: 11th August 2026

Online: 12th August 2026

KEYWORDS

Новый Узбекистан,
джадидизм, Махмудходжа
Бехбудий, Абдурауф
Фитрат, драматургия,
Национальная трагедия,
новое образование.

ABSTRACT

В данной статье представлен научный обзор движения джадидов, возникшего в Туркестане в конце XIX и начале XX веков, а также научных и философских взглядов, которые оно отстаивало в науке, образовании и государственном управлении в Новом Узбекистане.

YANGI O'ZBEKISTONDA JADIDLAR TA'LIMOTINI O'RGANISHNING IJTIMOIY TARBIYAVIY AHAMIYATI

Kucharboyeva Durdona Otamurod qizi

Navoiy davlat universiteti

"Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi" yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21898656>

ARTICLE INFO

Received: 04th August 2026

Accepted: 11th August 2026

Online: 12th August 2026

ABSTRACT

Ushbu maqolada XIX asrning oxiri va XX asrning boshlarida Turkustonda vujudga kelgan jadidchilik



KEYWORDS

Yangi O'zbekiston,
jadidchilik, Mahmudxo'ja
Behbudi, Abdurauf Fitrat,
dramama, Milliy fojia,
yangicha ta'lim-tarbiya.

*harakati va uning ilm-fan, ta'lim tarbiya, milliy davlat
boshqaruvida olib borgan ilmiy falsafiy qarashlarini
Yangi O'zbekistonda o'rganish jihatlarini ilmiy yoritib
berilgan.*

Jahonda sodir bo'layotgan globallashuv jarayonida yoshlar ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy qiyofasiga ta'sir ko'rsatayotgan destruktiv omillarni bartaraf etishda milliy o'zlikni anglash, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarni o'zida aks ettirgan ma'naviy merosni tadqiq etish va xalqqa yetkazish dolzarb ahamiyatga egadir. Ma'naviy hayotdagi tub o'zgarishlar, zamonga mos ravishda sog'lom fikrlaydigan, bugungi kun talablariga to'la javob beradigan inson kapitaliga e'tiborni kuchaytirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Ma'rifatparvarlarning ilgari surgan konseptual g'oyalari bugungi kunda ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga to'sqinlik qilayotgan muammolarning yechimi sifatida inson sha'ni va oriyatini himoya qiluvchi insonparvarlik, hurfiylik, diniy bag'rikenglik, millatlararo totuvlik g'oyalari yosh avlodga ta'lim-tarbiya berish, ularni ma'rifatga yetaklashda asosiy nazariy manbadir.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan jadidchilikning g'oyaviy qarashlarini o'rganish konsepsiyasini ilgari surilishi [1:] jumladan, 2023-yil 22-dekabr kuni o'tkazilgan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan "Jadid" [2;1-b] gazetasini nashr etish g'oyasini ilgari surishi Yangi O'zbekistonda jadidchilik g'oyalarini qaytadan o'rganish borasida olib borilayotgan

ta'lim-tarbiya sohasidagi pedagogik qarashlarda alohida ahamiyatga egadir. Shuningdek, mustaqillik sharofati bilan o'zbek xalqining yaqin tarixidagi madaniy merosi bo'lgan jadid adabiyotiga munosabat tubdan o'zgardi [3;175-b].

O'zbekiston siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixini yaratishda jadidchilik xarakatini tadqiq qilish muhim ilmiy muammolardan biridir. Bu sohada oxirgi vaqtda anchagina ilmiy va ommabop risola va maqolalar chop qilindi. Ularda jadidchilikka berilgan bir tomonlama, xaqiqatga zid baholarni noto'g'ri ekanligini isbotlovchi faktlar va izohlar berilgan. Ma'lumki, qadimgi Turon zaminida buyuk allomalar va mutafakkirlar kashf etgan boy ilmiy meros umumjahon sivilizatsiyasi taraqqiyotida muhim rol o'ynagan. Shu sababli, ma'naviyat, ma'rifat va ilm-fan taraqqiyoti uchun, hatto jonini ham baxshida etgan o'zbek taraqqiyparvar va ma'rifatparvar ziyolilarimizning o'rni alohida mavqe'ga ega bo'lgan. Ayniqsa, bugungi kunda O'zbekistonda tub o'zgarishlar davrida jadid mutafakkirlari ilmiy merosini hayotga tatbiq etilishi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Chunki, Mahmudxo'ja Behbudiyning e'tirof etishicha, xonliklar 50 yil ilgari dunyodan ajralgan bo'lib, jahon erishgan yutuqlardan foydalana olmaganlar va bu milliy davlatchilikning yo'qotilishi, mustamlakachilik asoratiga tushib



qolishning sabablaridan biri bo'ldi. Huquqlarni bilish, ularni himoya qila olish uchun bilimga ega bo'lish lozim [4;150-b].

Hozirda mamlakatimizda olib borilayotgan kadrlar tayyorlash siyosatining tarixiy ildizlarini, shubhasiz, jadidlar shakllantirgan. Jadidlar ta'limni modernizatsiya qilish, ma'rifatparvarlik ruhini targ'ib qilishni o'zlariga asosiy maqsad qilib olishgan edilar. Ma'rifatparvar jadidlar dastavval yangi ilm, fanni ulug'lab va millatni ilm o'rganishga targ'ib qilib, zamonaviy ilm va fan taraqqiyot kaliti ekanligini qayd etganlar. Ularning orasida, Munavvar qorining millat istiqboli uchun qilgan xizmatlari behad katta bo'lganligi istiqbolidan so'ng ma'lum bo'ldi. Millat fidoiysi Munavvar qori Turkistonning Yevropa va AQSh xalqlaridan orqada qolayotganligini ta'kidlaydi. "Har millat sohiblari o'z huquqi milliya va maoliyalarini talabida hur va muxtor bo'lgan bu zamonda... qo'rqurmanki, biz bechoralar shul g'aflat va shul ixtilof shul nafsoniyat sohasida hamma mustafid bo'lg'on hurriyatning ne'matlaridan ham mahrum qolmasak deb" - uning xalqning kelajagidan kuyinib, "hurriyat olinur, berilmas" deya millatga murojaat qilgani ma'lum. U yoshlardagi dangasalik va qo'rqqollikni millatning dushmani sifatida qoralaydi.

Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan oliy va o'rta ta'lim tizimidagi islohotlar mamlakat ijtimoiy iqtisodiy hayotida yuz berayotgan tub sifat va miqdor o'zgarishlarini e'tiborga olgan holda jamiyat taraqqiyotining dolzarb ehtiyojlariga javob beruvchi yangi ta'lim tizimini shakllantirishni nazarda tutadi. Negaki, avvalgi ta'lim

tizimi va an'anaviy o'qitish uslublari va ularning biryoqlamaligi, yangi zamon talablariga javob berolmasligi bois, rivojlangan mamlakatlardan raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ortda qolayotganligi ta'lim tizimini samamradorligini oshirishga xizmat qiladigan vazifalarni belgilashni taqozo etadi. Turkiston jadidlarining yo'l boshchisi bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy ta'limning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini ta'kidlab: "Zamon ilm va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo'lur", - deb yozadi. Millat o'z davrining zamonaviy ilm-fanini egallamas ekan, o'zligini anglay olmaydi, shuning uchun boshqa xalqlarga qaram bo'lishga majbur bo'ladi va jamiyatning taraqqiy etishiga zamin yarata olmaydi. Ularning fikricha, faqat milliy maktablarda ilm olish kifoya qilmaydi, chunki fan va texnika hamda ijtimoiy-gumanitar yo'nalishdagi ilmlarni egallash uchun rivojlangan mamlakatlari yetakchi oliy o'quv yurtlarida o'qish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekistonda yangicha dunyoqarashning shakllanishida, jamiyatning turli sohalarining taraqqiy etishida ma'naviy va madaniy merosimiz, milliy qadriyatlarimizning o'zni va rolini yana bir bora yosh avlod orasida keng yoyish va targ'ib qilish muhim vazifalarimizdan biri ekanligi ta'kidlangan. O'zbekiston Prezidenti ta'biri bilan aytganda, "ko'pchilik ziyolilar qatorida men ham bir fikrni hamisha katta armon bilan o'ylayman: mamlakatimizda Uchinchi Renessansni yigirmanchi asrda ma'rifatparvar jadid bobolarimiz amalga oshirishlari mumkin edi. Nega deganda, bu fidoyi va jonkuyar zotlar butun umrlarini milliy uyg'onish



g'oyasiga bag'ishlab, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish uchun bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etdilar. Shu yo'lda ular o'zlarining aziz jonlarini ham qurbon qildilar. Bu davrda Abdulla Avloniy, Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Ubaydulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Ibrat domla, Abdulhamid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Ashurali Zohiriy, Hoji Muin va boshqa yana yuzlab ulug' insonlar milliy uyg'onish va millatparvarlik harakatining oldingi saflarida turdilar" [5;68-b].

Uchinchi Renessans va Yangi O'zbekiston konsepsiyalari yaratilishida jadidchilik ta'limotini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda va Markaziy Osiyo xalqlari, shu jumladan, XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi o'zbek xalqi madaniyatidagi intellektual harakat sifatida qaraldi. Konseptual nuqtai nazardan jadidchilik biz tasavvur qilganimizdan ko'ra ham boy falsafiy ahamiyat kasb etdi. U mustaqilligimizni mustahkamlovchi turli ma'naviy imkoniyatlarni namoyon etadi, murakkab o'tmishimizni ijodiy tushunishimizga imkon beradi. Yangi O'zbekistonda jadidchilikning ijodiy, ma'rifiy salohiyati yuqori ijtimoiy vazifalarning amalga oshirishini ta'minlaydigan ma'naviy poydevorlardan biridir.

Jadidlarning konseptual falsafiy g'oyalari hozirgi innovatsion o'zgarishlarning darakchisi, bugungi strategiya yo'nalishidagi demokratik islohotlarning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Chunki ularning ta'lim dasturlari umuminsoniy xususiyatlarni, asosan, savodxonlik, ijtimoiy tenglik,

poliglottlik, mustaqillik, bag'rikenglik, milliy ong kabi g'oyalarni tarannum etadi. Bu esa o'z navbatida jadidchilik harakati mustaqillikka erishishimizga g'oyaviy asos bo'lgan nazariyalarni ilgari surganligidan dalolatdir.

Yangi O'zbekistonda yoshlarga har tomonlama, jumladan, milliy-mafkuraviy tarbiyaning nazariy jihatlarini, uslubiy va amaliy asoslarini shakllantirish va amaliyotga joriy qilish har tomonlama yetuk avlodni voyaga yetkazishning muhim omillaridan biri ekanligini ta'kidlagan holda, ularni hayotga tadbqiq qilish mustaqilligimizning ijtimoiy negizini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jadidchilik harakati, milliy uyg'onish, milliy mustaqillik, komil inson g'oyalari haqida mulohaza yuritilar ekan, jadid adabiyotiga murojaat etmay bo'lmaydi. Xalq va millatni uyg'otishda, taraqqiyotga rag'batlantirishda adabiyotning o'rni beqiyosligini ko'plab xalqlar tarixida kuzatish mumkin. Jadid adabiyoti vakillarining ilg'orlari tuzumni yangilash ehtiyojini anglab yetgan ijodkorlardir.

Jadidlar adolat o'rniga zo'rovonlik ko'z o'ngida sodir etilayotgan xalqni qirg'inbarot xunrezliklarga undamadilar. Aksincha, oqilona islohotlar asosida milliy fojidan, milliy qoloqlikdan chiqish yo'lini tutdilar. Umuman, jadidchi shoir va yozuvchilar ijodida davr voqealari juda yorqin va haqqoniy aks ettirilgan. Ular millat boshiga tushgan qoloqlik, zulm va zo'rovonlikda mustabid mafkura bilan bir qatorda mahalliy xon va beklarning ham "katta ulushi" borligini achchiq bir xaqiqat sifatida tilga oladilar. Bu esa shunchaki kundalik maishiy masala emas edi.



Shu o'rinda Behbudiyning "Padarkush" dramasiga alohida to'xtalish joiz. Muallif asarni "Milliy fojia" deb ataydi. Binobarin, millatning fojiasi sababi savodsizlik, bilimsizlik, nodonlikdir. Uzoqni ko'ra bilmagan boy ota farzandining savod chiqarib bilim olishiga yo'l bermadi. Savodsiz farzand ko'cha bezorilariga qo'shilib, maishat quliga aylanadi. Oqibatda pul uchun o'z sheriklari bilan otasini ham o'ldiradi. Aslida Behbudiyni iztirobga solgan ayanchli fojia millat hayotidan olinib, sahna orqali halq ko'zi oldida gavdalandirgan. Millat fojiasi, ayanchli taqdirlar, uning sabablari, hatto o'sha davrda aytilishi yoki asarda ifodalanishi mumkin bo'lmagan mustamlakachilarning o'z maqsadiga erishish yo'lidagi xalqning soddaligidan foydalanib amalga oshirgan turli nayranglari ham "Padarkush" dramasida aniq voqealar asosida yoritilgan. Millat va mamlakat taraqqiyotini barkamol avlodni tarbiyalashdan boshlash kerakligini jadidlar teran anglab yetdilar.

A.Qodiriyning "O'tkan kunlar"ida Otabekning istiqlol qayg'ularini o'qib uqimoq kerak. Otabekning savdo ishlari bilan Shamay (Semipalatinsk) taassurotlarida milliy qoloqlik sabablari "o'rusning bizdan yuqoridaligi uning ittifoqidan" deb ko'rsatilishi muhim ahamiyatga ega nuqtai nazardir. O'z g'arazi yo'lida el ustiga hukmron bo'luvchilarning zulmi va kaltabinligi, o'zaro toj-taxt talashishi xalqni va yurti halokat yoqasiga olib kelgan asosiy sabab edi. Otabekning "chuvalgan ipning uchini topib borgandek" mulohaza va fikrlarida o'zoro bitmas nizolarning asl ma'nosiga va oqibatiga e'tibor tortishi bejiz emas. Otabek mamlakat va xalq taqdirini

istiqbol qayg'usi tushiga ham kirmaydigan amir va xonlarga asosli ravishda ishonmaydi. Uzoqni ko'ra bilmaydigan bunday toj-taxt da'vogarlarida milliy taraqqiyot orzusi yo'q. "O'tkan kunlar"ning birinchi bobi, dastlabki sahifalaridayoq millat va mamlakat taqdiri bilan bog'lik masalaning tahlil etilishida ham o'ziga xos hikmat, ma'no bor. Otabek tafakkurini yoritgan, mulohazalariga qiymat bergan milliy taraqqiyot qayg'usi aslida A.Qodiriyning o'z iztiroblariga yaqindir-ki, bu jadid yozuvchisining istiqloлга, milliy taraqqiyot negizi bo'lgan komil inson g'oyasiga munosabatini oydinlashtiradi. Asardagi milliy jipslikka da'vat, xonliklar inqirozining bosh sababi - ularda milliy taraqqiyot mo'ljalining yo'qligidan afsus, milliy g'aflatdan uyg'onishga undov aslida milliy yuksalishga, milliy ozodlikka da'vatdir. Buning uchun birinchi navbatda millatni g'aflat uyqusidan o'yg'otmoqqa qodir bo'lgan barkamll avlodni tarbiyalash muhim edi.

Jadidchilik harakati haqida fikr mulohaza yuritilar ekan, vorisiylik, davomiylik tushunchasi xususida ham to'xtalish joiz. Yurt mustaqilligi, insonparvarlik, ilmparvarlik, xalqparvarlik, vatanparvarlik, ona tiliga muhabbat, xalq farovonligi kabi ko'plab g'oyalar jadidlarga bo'lgan davr adabiy, siyosiy, falsafiy qarashlarida ham yetakchi o'rinda turgan. Navoiyning insonparvarlik, ilmparvarlik, vatanparvarlik, Yusuf Xos Hojibning adolatparvarlik, inson komilligi, taraqqiyparvarlik, Qoshg'ariyning adabiy til birligiga erishish, ona tiliga muhabbat, Forobiyning yurt ravnaqi, xalq farovonligi bilan bog'liq umid, orzu va



chaqiriqlari jadidlar qarashlari uchun muhim g'oyaviy- ma'naviy negiz bo'lgani shubhasiz.

Jadidlar davridagi keskin ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy hayot voqealari ular qarashlarining o'zlaridan ilgarigi qarashlardan farqi bo'lishini taqozo etar edi. Chunonchi, jadidlar davri millatning mavqei, siyosiy ahvoli keskin o'zgargan edi. Milliy jipslik yo'qotilishi natijasida millat qudratining ijtimoiy-siyosiy va g'oyaviy negizi - mustaqillik boy berilgandi. O'z zamonida mamlakat tinchligi, xalq farovonligi maqsadlari yuklangan ba'zi bir g'oyalar jadidlar davrida dolzarbligini yo'qotganini kuzatamiz. Bunday g'oyalar kutilgan natijani berolmadi. Masalan, an'anaviy davom ettirib kelinayotgan «odil podshoh», «ma'rifatli podshoh» g'oyalarini olaylik. Jadidlar davrida yurtda kundan-kunga kuchayib borayotgan zo'rovonlik, parokandalik, qashshoqlik, zulmdan endi adolatli yoki ma'rifatli shoh xalos eta olmas edi. Shuning uchun ham jadidlar millat mustaqilligi masalasini aniq holda qo'ygan, umumma'rifatga da'vat va nasihat bilan cheklanmasdan idoraviy islohotlar zarurligini angladilar. "O'tkan kunlar"ning "Qipchoqqa qirg'in" qismida Yusufbek mulohazasi va holatini eslash mumkin: «Ittifoqni nima ekanini bilmagan yolg'iz o'z manfaati shaxsiyasi yo'lida bir-birini yeb, ichgan mansabparast, dunyoparast, shuhratparast muttahamlar Turkiston tuprog'idan yo'qolmay turib, bizning odam bo'lishimizga aqlim yetmay qoldi... Biz shu holda ketadigan, bir-birimizning tegimizga suv qo'yadigan bo'lsak, yaqindirki, chor istibdodi Turkistonimizni egallar» [6;283-b].

Mamlakat farovonligi yo'lida najotni «adolatli podshoh»dan kutishga endi umid ham yo'q. Qodiriyning Yusufbek hoji tomonidan keskin bir tarzda ifodalangan bu xulosasi bejiz emas. Mas'uliyatsizlik va g'aflat oqibatida parokandalikka yuz tutgan xonliklar mamlakat va xalq taqdirini chor istibdodi iskanjasiga topshirgan bir zamonda ularni adolat va ma'rifatga undash befoyda edi. "Ma'rifatli podshoh", "odil podshoh" g'oyalari jadidlar davrida tarixan o'z umrini yashab bo'lgan, dolzarbligini yo'qotgan, hatto reaksiya g'oyaga aylanganini e'tirof etish joizdir: "Ba'zi hukamolar adolatni podshohlarga vobasta qilurlar va ba'zi podshohni odil deb ta'rif qilurlar, vaholanki, odil podshoh bo'lmas...Shohga va uning mulozimlariga ishonmak, mor qornidagi chumchuq bolani tirik demakdan o'zga emas" [7;102-105-b]. Millat va xalqning saviyasini, ijtimoiy faolligini ko'tarish, g'ururini uyg'otish, dunyoviy bilimlarni egallagan, yangi dunyoqarashga ega bo'lgan avlodni tarbiyalash jadidlar davri milliy taraqqiyot oldida turgan muhim vazifa edi.

Jadidchilik aslida ma'rifatparvarlik harakatining ko'rinishidir. Ma'rifatning lug'aviy ma'nosi bilish, tanish, bilim demakdir. Boshqacha aytganda ma'rifat bilmoq, kishilarning ong-bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta'lim-tarbiya jarayonidir. Ma'rifat so'zining ko'pchilikdagi ma'nosi maorifdir. Ma'rifat atama sifatida - tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli-tuman bilimlar, ma'lumotlar majmuasini bildiradi. Ma'rifatli degani - bilimli, muayyan sohada ma'lumoti bor, demakdir. Ma'rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi.



Demak ma'rifat - bilim va madaniyatning qo'shma mazmuni bo'lib, maorif esa ana shu mazmunni yoyish kuroli, vositasidir. Ma'rifat asosan umumiy va o'rta maxsus bilim beruvchi maktab va o'quv yurtlarida tarqatiladi. Ma'rifat tushunchasi maorif tushunchasidan keng bo'lib, bilim va madaniyatni yoyish va yuksaltirishning hamma turlari, shakllari va sohalarini o'z ichiga oladi. Jamiyatda ma'rifat, ya'ni bilim ma'rifatparvarlar orqali yoyiladi. Ma'rifatparvar - ma'rifat uchun kurashuvchi; ilm, bilim chirog'ini yoquvchi; ma'rifat xomiysi va tarafdori demakdir.

Insoniyatning bir jamiyatdam ikkinchi jamiyatga bir tarixiy davrdan ikkinchi bir tarixiy davrga o'tishi ma'rifatparvarlikdan boshlanadi. Zamonaning eng etuk ongli, oq-qorani tanigan, fidoyi, elim, yurtim deb yashovchi, uzoqni ko'zlovchi ma'naviyatli kishilari ma'rifatparvarlik bilan shug'ullanadilar. Ma'rifat ma'naviy qaramlik qo'rquv va hadikni bartaraf etadi, insonga beqiyos ilohiy qudrat mislsiz salohiyat baxsh etadi. Shuning uchun ozodlik uchun kurashchilari mamlakat, millat ozodligini xalqning ma'rifiy uyg'oqligida deb biladilar va ma'rifat uchun kurashadilar.

Turkistonda jadidchilik milliy-ozodlik kurashi jarayonida yuzaga kelgan, o'zbek xalqi tarixida yangi saxifani ocha boshlagan ijtimoiy harakat bo'lganligi bilan ajralib turadi. Ularning dunyoqarashida vatanparvarlik millatparvarlik ma'rifatparvarlik taraqqiyparvarlik kabi g'oyalar etakchilik qilgan. O'lkani mustamlaka zulmidan ozod qilishni jadidlar hamma narsadan ustun qo'yidilar. Jadid ziyolilari erk, istiqloлга erishish uchun milliy ongni

o'stirish zarurligini payqadilar. Shu orqali milliy uyg'onish yasamoqchi bo'ldilar. Buni esa ta'lim va tarbiyada - ma'rifatda deb bildilar. Mana shuning uchun ham jadidlar yangicha ta'lim va tarbiya tizimini qaror toptirish yo'lida hormay-tolmay ishladilar.

Sovet davrida jadidlardan chiqqan milliy ziyolilar sovet organlarida faoliyat ko'rsatdilar va o'z faoliyatlari bilan xalq ta'limi san'atini rivojlantirishga ma'rifiy ishlarni taraqqiy ettirishga harakat qildilar. Jadidlarning ayrim qismi mustabid tuzumning siyosatiga ko'nikmay xorijga o'tib ketdilar, muayyan qismi esa istiqlolchilar harakatiga qo'shilib ketdilar. Istiqlolchilik harakatiga g'oyaviy raxnamolik qilish, ayniqsa, sovet organlarida ishlab, milliy mustaqillik g'oyalarini targ'ib qilishdagi sa'y-harakatlari jadidlarning sovetlar tomonidan 1929, 1937-1938 yillarda ommaviy qirg'in qilinishiga olib keldi.

Hozirgi zamonaviy taraqqiyot, globallashuv va axborot texnologiyalarining mislsiz rivoji jamiyat hayotining har bir sohasida yangi vazifalarni yuzaga keltirdi. Davlat va jamiyat qurilishi, sud-huquq tizimida islohotlarni davom ettirish, kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyatiga o'tish kabi vazifalar ham shular jumlasidandir. Globallashuv sharoitida axborot huruji va ommaviy madaniyat niqobi ostida tarqalayotgan yot, buzg'unchi g'oyalarga nisbatan aholida, yoshlarda mafkuraviy immunitet hosil qilish, milliy taraqqiyot bilan bog'liq boshqa vazifalar jadidlar davrida, tabiiyki, kun tartibida bo'lmagan.

Jadidlarda milliy istiqlol g'oyasi ulargacha bo'lgan an'anaviy



ma'rifatparvarlik qarashlaridan masalaning bevosita qo'yilishi bilan ham ajralib turadi. Ya'ni milliy g'oya, milliy mafkura masalasi jadidlar tomonidan istiqloлга erishish uchun yo'l ochuvchi g'oyalar sifatida kun tartibiga qo'yilgan. Behbudiy, Avloniy, Fitratning shu xususdagi bir qator maqola, ilmiy, badiiy asarlarini eslash mumkin: "Dunyoda turmoq uchun dunyoviy fan va ilm lozimdir. Zamona ilmi va fanidan bebahra millat boshqa millatlarga paymol bo'lur" [8;200-b],-deb yozgan edi Behbudiy "Ehtiyoji millat" maqolasida.

Xullas, jadidlar davri milliy istiqloл g'oyasining bosh maqsadi milliy ozodlikka erishmoq, millat mustaqilligini qo'lga kiritishda ifodalansa, bugungi mustaqillik qo'lga kiritilgan davrda mustaqillikni mustahkamlash yo'lida "Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot barpo etish", dunyoning rivojlangan davlatlari qatoriga ko'tarilish g'oyasi bosh maqsad sifatida olinadi. Jadidlar g'oyalarining cho'qqisi bo'lgan mustaqillikka erishish bugungi kun uchun poydevor vazifasini o'taydi.

Davr va muhit bilan cheklab bo'lmaydigan umuminsoniy qadriyatlar jadidlar g'oyaviy qarashlarida muhim o'rin tutganini e'tirof etish lozim. XX asr boshidagi o'zbek jadid ma'rifatchiligining nodir hodisasi bo'lgan "Turkiy guliston yohud axloq" asari mulohazalarimizga oydinlik kiritish mumkin.

Xulosa sifatida quyidagi fikrlarni ilgari surish maqsadga muvofiqdir.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-apreldagi "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5465

sonli Farmonida ta'kidlangan "milliy g'oya" turkumidagi fanlarni o'qitishga nisbatan yangicha yondashuvlar, jumladan, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlari uchun jadid mutafakkirlarining milliy g'oyani shakllantirish va rivojlantirishdagi sa'y-harakatlaridan o'quv adabiyotlari, uslubiy qo'llanmalar yaratishda foydalanish mumkin.

2. Jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlari jumladan, ta'lim tizimini isloh qilish orqali, farovonlik va barqaror rivojlanishni ta'minlash, jamiyatni taraqqiy ettirish ta'lim-ma'rifat orqali yuzaga kelishiga oid g'oyalaridan foydalangan holda umumiy o'rta ta'limda maktab dasturlarini tayyorlash mumkin.

3. Jadid ma'rifatparvarlarining asarlarida ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan siyosiy partiyalar rolini oshirish, siyosiy tashabbuskorlik, tadbirkorlik, siyosiy harakatchanlik, hurfikrlilik, hamjihatlik, bag'rikenglik, murosasozlik kabi xususiyatlari hamda jadidlarning ijtimoiy – axloqiy g'oyalari asosida ona tili, davlat tili, tarbiya, oila va nikohni mustahkamlashning nazariy-amaliy asoslari bo'yicha oila institutini mustahkamlashga qaratilganligi (nikohning muqaddasligi, oilada bag'rikenglik, murosaviylik, oilada poklik va farzandlar tarbiyasi) uchun hujjatli va kino filmlar ssenariylarida foydalanish mumkin.

4. Jadidlarning turkiy tilli davlatlar xalqlarining boy tarixi va madaniyati, ma'naviy-axloqiy qadriyatlari, do'stlik va hamjihatlik an'alarini yanada mustahkamlash to'g'risidagi qarashlarini



ijtimoiy fanlarni o'qitishga oid fan dasturlariga kiritish lozim.

5. Jadidlarning insonparvarlik g'oyalariga asoslanib, zamonaviy oilalar va oilaviy munosabatlar madaniyatini mustahkamlash bo'yicha ma'naviy-ma'rifiy va axloqiy qarashlari "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi va FHDYO organlarining targ'ibot faoliyatida uslubiy qo'llanma yaratishda foydalanish mumkin.

6. Jadidlarning ijtimoiy-falsafiy qarashlarini amaliy tarzda shakllantirishda uy-muzeyini tashkil qilish orqali ziyorat turizmni rivojlantirish, sayohatlarni ma'naviy-tarbiyaviy jihatini takomillashtirish uchun targ'ibot materiallarini tuzishda foydalanish mumkin.

7. Maktablarda "Tarbiya" fanini nazariy boyitishda mazkur ilmiy yutuqlaridan foydalanishni tavsiya qilish mumkin.

References:

1. Sh.M.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi.-T.: 2020-yil 29-dekabr.
2. Iqbol Mirzo Birlashmoq davri. Jadid gazetasi. 2024-yil 1-yanvar
3. Rajabov Q.K. O'zbekiston XX asrda (1900-2000-yillar) Birinchi jild 1900-1939-yillar. T.: Fan, 2024.
4. Jadidchilik harakati va uning ijtimoiy-siyosiy ahamiyati va ularning davlatchilikka oid qarashlari.//O'zbekiston davlatchiligi tarixi ocherklari. -Toshkent. Sharq, 2001.
5. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik. - Toshkent: "O'zbekiston", 2023.
6. Abdulla Qodiriy O'tgan kunlar. -Toshkent: O'qituvchi, 1980.
7. Anbar Otin. She'rlar. Risola.Pisoi falsafai siyohon. -Toshkent: Adabiyot va san'at, 1970.
8. Mahmudxo'ja Behbudiy Ehtiyoji millat. Tanlangan asarlar. - Toshkent: Ma'naviyat, 2006.